

2-1-2021

## ANALYSIS OF EFFICIENCY INDICATORS OF PRIVATE BANKS ACTIVITY

R. Kurbonov PhD  
*Finance Institute of Tashkent*

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance>

---

### Recommended Citation

Kurbonov, R. PhD (2021) "ANALYSIS OF EFFICIENCY INDICATORS OF PRIVATE BANKS ACTIVITY,"  
*International Finance and Accounting*: Vol. 2021 : Iss. 1 , Article 11.  
Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2021/iss1/11>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in International Finance and Accounting by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [sh.erkinov@edu.uz](mailto:sh.erkinov@edu.uz).

**PhD R.B.Qurbonov**  
*Toshkent moliya instituti*

## **XUSUSIY BANKLAR FAOLIYATI SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI**

Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasidagi faoliyat olib borayotgan xususiy banklarning samaradorlik ko'rsatkichlariga bag'ishlangan. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan chiqarilgan bank tizimi bo'yicha moliyaviy hisobot tahlilidan olingan hamda. O'zbekiston Respublikasidagi hozirgi kundagi mavjud 6 ta xususiy banklar faoliyati qamrab olingan. Muammoni hal qilish uchun biz regression tahlil va korrelyatsiya usulidan foydalanamiz. Bunda 2 ta samaradorlik ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillarni regression va korrelyatsiya tahlil usulidan foydalanib tegishli xulosalar berilgan. Izlanishlar natijasida bank aktivlari hajmi, aktivlarni boshqarish koeffitsiyenti va operatsion samaradorlik ko'rsatkichlari ROA hamda foizli daromadlarga ijobiy bog'lanishda ekanligi aniqlandi.

**Tayanch so'zlar:** xususiy banklar, moliyaviy ko'rsatkichlar, samaradorlik, foizli daromad, aktivlar hajmi, ROA.

**PhD R.B.Kurbonov**  
*Tashkent Institute of Finance*

## **ANALYSIS OF EFFICIENCY INDICATORS OF PRIVATE BANKS ACTIVITY**

*This article is devoted to the efficiency indicators of private banks activity in the Republic of Uzbekistan. The data are taken from the analysis of financial statements on the banking system issued by the Central Bank of the Republic of Uzbekistan and cover the activities of 6 existing private banks in the Republic of Uzbekistan. To solve the problem, we used the Regression analysis and correlation method. Relevant conclusions were drawn using regression and correlation analysis of the factors influencing the two efficiency indicators. The study found that the size of the bank's assets, asset management ratio and operational efficiency indicators are positively correlated with ROA and interest income.*

**Key words:** private banks, financial indicators, efficiency, interest income, volume of assets, ROA.

### **Kirish**

Hozirgi paytda bank soxasini rivojlantirish va iqtisodiy jihatdan yuksaltirish uchun kredit muassasalarining barqarorligiga erishish juda muximdir. Ma'lumki, qo'yilmalarni jalb etish va bank resurslarini ko'paytirishda uning obro'si hal qiluvchi omil sanaladi. Bu obro' xususiy banklar passivlarini boshqarish sifatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Bozor munosabatlari sharoitida xususiy banklar tarmog'ini kengaytirish ular o'rtasida depozitlar, banklararo kredit va boshqa resurslarni jalb etish uchun raqobatni yuzaga keltiradi.

Jahon bank amaliyotida bank tizimining resurs bazasi hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirish va har bir mamlakatning kelgusi rivojlanishi to'g'risida muhim strategik qarorlarni qabul qilish uchun zarurdir. Barcha tijorat banklar uchun resurslarni shakllantirish muhim rol o'ynaydi, chunki ularning manbalar tarkibi va hajmi to'g'ridan-to'g'ri banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirish ko'lami shunchalik kengaytiradi. Shuning uchun, ularning kelajakdagi oladigan foydasining miqdori bank faoliyatini muvaffaqiyat kalitidir.

“Ushbu jarayonlar banklardan o‘zlarining etarli miqdordagi resurs bazasini yaratishni, tuzilmani optimallashtirishni va uni mustahkamlashni talab qiladi”[1].

Hozirgi kunda, tijorat banklarning resurs bazasi va uni mustahkamlash masalalari, ularning kapitallashuv darajasi va resurs bazasi etarli emasligi, muddatli va jamg‘arma depozitlarni jalb qilish hamda hajmini oshirish darajasining zaifligi, ular tomonidan subordinar qarz majburiyatlarni jalb etishning sustligi kabi jihatlari etarlicha ochib berilmagan. Xususan, tijorat banklarning resurs bazasini mustahkamligini ta‘minlashda ularning kapitallashuv darajasini oshirish, barqaror resurs bazasini ta‘minlash, resurs salohiyatini yanada mustahkamlash bilan bog‘liq masalalar dolzarbligini saqlab turibdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018 yil 22 noyabrda bank tizimi masalalariga bag‘ishlanib o‘tkazilgan videoselektorda tijorat banklari ustav kapitali asosan davlat ulushi hisobiga oshirilib, xususiy sektor mablag‘lari deyarli yo‘naltirilmagani jiddiy tanqid qilindi. Shuningdek, Prezident o‘zining Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida ham ushbu masalaga alohida to‘xtalib, banklar kapitalidagi davlat ulushi 83% ekanligi bank xizmatlari sifatiga salbiy ta‘sir etib, sog‘lom raqobat uchun yo‘l bermayotganligini qayd etdi [2]. T.Ishmetov “Shu paytgacha bank tizimini sog‘lomlashtirish uchun hukumat asosan iqtisodiyotga davlat aralashuvini yoqlaydigan Keynscha «tibbiyot»dan foydalanib keldi. Ammo bunday sog‘lomlashtirish amaliyotlarining me‘yordan ortib ketishi ayrim tijorat banklarining yashab ketishi uchun ularni Keynscha «tibbiyot»dan keladigan «doza»larga ma‘lum ma‘noda qaram qilib qo‘ydi. So‘nggi yillarda bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘lib, bunga erishish uchun hukumat bank bozorida davlat aralashuvi va ulushini kamaytirishga asosiy e‘tibor qaratmoqda”- deb ta‘kidlagan [3].

“Respublikamiz bank-moliya tizimida olib borilayotgan tub islohotlarning pirovard maqsadi banklarning resurs bazasini mustahkamlashga, banklarni kapitallashuv darajasini oshirishga, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar va aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini oshirishga qaratilgan” [4]. Jumladan, “2025 yilga qadar banklar ustav kapitalining eng kam miqdorini 500 mlrd so‘mgacha etkazish masalasi” [5] va “bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish, depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchligini mustahkamlash vazifalari” [6] belgilab berilgan. Mamlakatimizda “2020–2025 yillarga mo‘ljallangan respublikaning bank tizimini isloh qilish strategiyasida 6 ta bankdagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish” [5] nazarda tutilgan. Bu islohotlar provardida xususiy banklarning ulushini yanada oshirish hamda ularning resurs bazasini mustahkamlashni talab etmoqda.

### **Adabiyotlar sharhi**

P. Prakash, Th. Iqbal, R. Habeeb, T. Rajesha and S. Adellar o‘z ilmiy maqolasida “Bank instituti zamonaviy jamiyatda ajralmas qismidir. U mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi va rivojlangan mamlakatda pul marketingini shakllantiradi. Barqaror iqtisodiy tizimda bank

faoliyati ishlab chiqarish faoliyati uchun moliyaviy resurslarni ko'paytirish orqali katta ahamiyatga ega bo'lib, ular ish bilan ta'minlash va mamlakatning umumiy rivojlanishiga olib keladi. Banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari firmaning siyosati natijalarini, pul samaradorligi va samaradorlikni tahlil qilishga yordam beradi. Ushbu natijalar firmalarning investitsiyalarni qaytarishi, aktivlarning rentabelligi va foyda olishida aks etishini"-tadqiq etganlar [7].

Dakitoning so'zlariga ko'ra "Mamlakatning moliyaviy ahvolidan o'sishi va barqarorligi uning bank sektorining barqarorligiga bog'liqligini"-ta'kidlagan [8].

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq hukumatimiz tomonidan bank tizimini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda, chunki bank sektori mamlakat moliyaviy barqarorligining muhim jihati hisoblanadi. Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasining bank sektori uchun so'nggi o'n yil aholi va korxonalariga bank xizmatlarini taqdim etishning jadal o'sishi va kengayishi yillari bo'ldi [9]. Hozirgi kunda banklar iqtisodiyotda, xususan dunyoning ko'plab mamlakatlarning moliya tizimlarida katta rol o'ynaydi. Mablag'larning katta qismi banklar orqali yo'naltiriladi va bu banklarni eng muhim moliyaviy institutlardan biriga aylantiradi. Banklarning iqtisodiyotdagi muqarrar roli tartibga solish va nazoratning maxsus shakllarini, shuningdek o'zlarining faoliyatini tekshirishni talab qiladi. Daromadlilik banklar faoliyatining eng keng tarqalgan ko'rsatkichlaridan biridir [10].

Čapraru va Ixnatovlar esa 2004 va 2011 yillarda Markaziy va Sharqiy Evropaning tanlangan besh mamlakatida banklar daromadlilikining asosiy omillarini baholashga harakat qilishgan. Ular sof foydaning umumiy kapitalga nisbati sifatida hisoblangan banklarning rentabelligi o'lchovi sifatida capital rentabelligidan (ROE); sof foydaning bank aktivlariga nisbati sifatida hisoblangan aktivlarning rentabelligi (ROA) va Sof foiz marjasi (NIM) - foizli daromad va foiz xarajatlari o'rtasidagi farqni bankning jami aktivlariga nisbati sifatida hisoblanadi; kabi ko'rsatkichlardan foydalanganlar. Shuningdek, ular bank rentabelligini belgilovchi uchta omilni ko'rib chiqdilar: banklarga xos omillar (bank hajmi, moliyaviy tuzilma, qabul qilingan kredit xavfi, likvidlik xavfi, biznes tuzilmasi, daromadlar va kapital xarajatlar tarkibi); sanoatning o'ziga xos xususiyatlari (bozor konsentratsiyasi, moliyaviy vositachilik va boshqalar) va makroiqtisodiy elementlar (masalan, iqtisodiy o'sish va inflyatsiya). Ular olib borgan tadqiqotlarining natijalari shuni ko'rsatdiki, boshqaruv samaradorligi va kapitalning yetarliligi o'sishi bankning barcha ko'rsatkichlar bo'yicha daromadlilikiga ta'sir qiladi, kredit xavfi va inflyatsiya esa faqat ROA va ROE ni belgilaydi [11].

Bizga ma'lumki, tijorat banklarning mablag'larni jalb qilish qobiliyati qanchalik yuqori bo'lsa, banklar uchun mablag'larni zayomlar shaklida yo'naltirish imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, bankning daromad / foyda olish ehtimoli oshadi. Ushbu holatda banklarning daromadlilikiga aktivlarning rentabelligi (ROA) yordamida aniqlanadi.

E Tandelilin ma'lumotlariga ko'ra, ROA kompaniyalarga tegishli bo'lgan aktivlarning daromad keltirishi mumkin bo'lgan darajasini ko'rsatadi. U o'zining

ilmiy ishida ROA tijorat banklar uchun juda muhim ekanligini o'rgangan [12]. Bundan tashqari, ROA qancha yuqori bo'lsa, foyda darajasi shunchalik yuqori bo'lishini va bankning holati hamda faoliyati yaxshilanishini Dendavijaya ham o'z ilmiy izlanishlarida ROAni aktivlardan foydalanish nuqtai nazaridan ko'rib chiqqan[13].

Banklarning moliyaviy ko'rsatkichlarini baholash va tahlil qilish barcha ichki va tashqi foydalanuvchilar, masalan, bank menejerlari, omonatchilar, kreditorlar, investorlar, xodimlar va tartibga soluvchilar uchun muhimdir. Banklar, boshqalar qatori, o'zlarining qisqa muddatli foydalarini ko'paytirishga harakat qilib, bu ko'pincha kapitalning rentabelligi (ROE), aktivlarning rentabelligi (ROA) yoki sof foiz marjasi (NIM) va uzoq muddatli boylikni maksimallashtirish maqsadlari, ya'ni har bir aktsiyaga tushadigan daromad (EPS) yoki bir dona bozor narxi (MPS) bilan o'lchanadi. Tahlilning bunday turi banklarga o'zlarining kamchiliklarini bartaraf etish, kuchli tomonlarini saqlab qolish va shu kabi firmalardan saboq olish uchun reaktiv va faol choralar ko'rishga yordam beradi deb ta'kidlagan Doktor Tesfatsion Sahlu Desta [14].

Naim, Baloch va Xan kabi olimlar Pokistondagi tijorat banklarining rentabelligini aniqlashda Aktivlar rentabelligi (ROA), Kapitalning rentabelligi (ROE) va Sof foiz marjasi (NIM) kabi 3 ta ko'rsatkichdan foydalanganlar. Ular ROA-ni tijorat banklarining daromadlilikini eng muhim va foydali ko'rsatkichlaridan biri sifatida aniqladilar, bu sof daromadni umumiy aktivlarga bo'lish yo'li bilan aniqlandi [15].

Sh.Xannaev o'z ilmiy maqolasida shunday deb ta'kidlagan – “Asosiy maqsadi foyda olish bo'lgan tijorat banklari samaradorligiga ob'ektiv baho berish, nafaqat ushbu sohada faoliyat yuritadigan moliyaviy tashkilotlar menejerlari uchun, shu bilan birga yuqori darajadagi hukumat doiralari uchun ham juda muhim sanaladi. Shu sabab, samarali faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijadorligiga katta hissa qo'shadi. Bu o'z navbatida, mamlakatni iqtisodiy o'sish sifatini va ijtimoiy farovonligini ta'minlashga olib keladi. Shuning uchun ham bank-moliya tashkilotlari turli siyosiy va iqtisodiy instrumentlardan foydalangan holda tijorat banklari samaradorligini oshirishga harakat qiladi” [16].

F. Nasriddinov esa “Tijorat banklari moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini hisoblashdan asosiy maqsad foydalanuvchilarni moliyaviy institut qay darajada barqaror faoliyat yuritishi haqida ma'lumot bilan ta'minlash hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlarning xalqaro darajada qiyoslash, ko'rsatkichning mohiyatini kengroq yoritishga xizmat qiladi. Shu maqsadda Xalqaro valyuta fondi ekspertlari tomonidan 1992 yil moliyaviy barqarorlikni hisoblash ko'rsatkichlari birinchi marta ishlab chiqildi va tavsiya etildi. 2002 yilda hamda so'nggi marta 2006 yillarda ba'zi o'zgartirishlar kiritildi. Bu moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari jami 39 ta bo'lib ular 2 ta guruhga bo'linadi. Birinchi guruh asosiy ko'rsatkichlarni (bank tizimiga oid) o'z ichiga oladi va 12 ta moliyaviy ko'rsatkichdan tashkil topgan. Ikkinchi guruhga kiruvchi 27 ta ko'rsatkich, nobank moliya tashkilotlari,



korxonalar va uy xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligini hisoblashda qo'llashga tavsiya etilganligini" ta'kidlaganlar [17].

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tahlil jarayonida ma'lumotlarni statistik guruhlash, regression tahlil va korrelyatsiya usullaridan foydalanildi. Maqolada regression tahlil va korrelyatsiya tahlili davri 7 yilni (2013-2019 yy.) qamrab olgan va tendentsiyalar aniqlangan.

### **Tahlil va natijalar**

O.Sattarov o'z ilmiy maqolasida shunday deb ta'kidlagan – "Banklar rentabelligini oshirib borish uning barqarorligini ta'minlashda eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun tijorat banklari yoki bank tizimi aktivlari rentabellik (ROA) ko'rsatkichlarini doimiy tahlil etib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki aynan ushbu ko'rsatkich orqali bank risklarini baholash imkoniyati paydo bo'ladi. ROA ni tahlil etish natijasida banklarning kredit riski, foiz riski, likvidlik riski, operatsion risk hamda bank foydalilik darajasiga ta'sir etuvchi har qanday risklarini baholash imkoni paydo bo'ladi" [18].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, biz xususiy banklarning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sir darajasiga baho berish maqsadida ekonometrik tahlil o'tkazdik.

Mazkur ekonometrik tahlil ko'p omilli regression va korrelyatsion omillar mamlakatimizdagi 6 ta xususiy banklarning 2013-2019 yillar ma'lumotlari asosida amalga oshirildi. Bunda dinamik panel ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining nashr etgan statistik ma'lumotlari va xususiy banklarning ochiq ma'lumotlar bazasidan foydalanildi.

Natijaviy omil qilib mamlakatimizdagi xususiy banklarining moliyaviy barqarorligiga sabab omillari qilinib esa, mamlakatimizdagi xususiy banklarning aktivlari hajmi (bank hajmi), aktivlarni boshqarish ko'rsatkichi, operatsion samaradorlik darajasi, foiz daromadi va bank aktivlari rentabelligi darajasi tanlangan. Mazkur omilli ekonometrik tahlilida o'zgaruvchilarning korrelyatsion bog'liqlik matritsasi testi amalga oshirilib, bog'liq o'zgaruvchiga asosiy ta'sir qiluvchi mustaqil o'zgaruvchining ta'siri yo'qolishiga olib kelmasligi uchun tanlangan natijaviy o'zgaruvchilarning yuqori ta'sir qiladigan tanlanib ko'p omilli ekonometrik model shakllantirildi. Ushu modelning matematik funktsiya ko'rinishi quyidagicha aks ettirilgan.

$$Y = \beta_0 it + \beta_1 * X_{1it} + \beta_2 * X_{2it} + \beta_3 * X_{3it} + \epsilon_{it}$$

$$ROA_{i,t} = \beta_0 + \beta_1 * BS_{i,t} + \beta_2 * AsM_{i,t} + \beta_3 * OE_{i,t} + \epsilon_{i,t} \quad (1)$$

$$INTNC_{i,t} = \beta_0 + \beta_1 * BS_{i,t} + \beta_2 * AsM_{i,t} + \beta_3 * OE_{i,t} + \epsilon_{i,t} \quad (2)$$

Bunda;  $ROA_{i,t} = t$  davr mobaynida  $i$  bankning aktivlar rentabelligi;

$INTNC_{i,t} = t$  davr mobaynida  $i$  bankning foizli daromadi;

$\beta_0 =$  konstanta,  $Y$  intersept;  $\epsilon_{i,t} =$  xatolik miqdori,  $t$  davr mobaynida  $i$  kesimda.  $\beta_1$ ,  $\beta_2$ , va  $\beta_3$  Mustaqil o'zgaruvchilarga nisbatan moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarning o'zgarish tezligini ko'rsatadigan koeffitsient.

$BS_{i,t} = i$  bankning  $t$ -yildagi bank hajmi (bank aktivlari)

$AsM_{i,t} = i$  bankning  $t$ - yildagi aktivlarni boshqarish koeffitsienti

$OE_{i,t} = i$  bankning  $t$ - yildagi operatsion samaradorligi; bunda  $t = 2013-2019$

Birinchi bosqichda ma'lumotlar turliligi tekshirildi va deskriptiv statistika orqali dastlabki ma'lumotlar tahlili amaga oshirildi.

1-jadval

**Diskriptiv statistika<sup>1</sup>.**

	ROA	INTINC	BS	AsM	OE
<i>Kuzatuvlar soni</i>	42	42	42	42	42
<i>Mediana</i>	3.081929	40899.71	12.81783	15.62738	100.4662
<i>Maksimum</i>	0	1689	10.32118	5.77	52.17
<i>Minimum</i>	8.97	200111	15.21223	42.12	476.52
<i>Standart chetlanish</i>	2.182004	56626.5	1.296593	6.456804	73.67502

Diskriptiv statistik ma'lumotlarning natijalari shuni ko'rsatadiki, har bir tanlangan o'zgaruvchiga oid ma'lumotlar odatiy taqsimlanadi va ekonometrik modellash uchun qo'llaniladi.

Shundan so'ng korrelyatsion tahlilga o'tamiz. Bunda Pearson korrelyatsion koeffitsientidan foydalanamiz. Bizga ma'lumki, Pearson korrelyatsion koeffitsienti bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarni o'zaro bog'liqligini hamda qanchalik darajada bog'liqligini ko'rsatadi.

2-jadval

**Korrelyatsiya matritsasi<sup>2</sup>.**

	ROA	INTINC	BS	AsM	OE
<i>ROA</i>	1				
<i>INTINC</i>	.337**	1			
<i>BS</i>	.363**	.949***	1		
<i>AsM</i>	.489***	-.093*	-.160*	1	
<i>OE</i>	.321**	-.303**	-.280*	.533***	1

\*\*\* 1% lik statistik ahamiyatga ega

\*\* 5% lik statistik ahamiyatga ega

\* 10% lik statistik ahamiyatga ega

Yuqoridagi korrelyatsiya matritsasiga ko'ra mustaqil o'zgaruvchilarning o'zaro korrelyatsiyasi yuqori emas, bu o'z navbatida bizning regression tahlilda multikolinearlik muammosi vujudga kelmasligini anglatadi. Ya'ni, ROA banklar hajmi, ININC, aktivlarni boshqarish va banklarning operatsion samaradorligi bilan ijobiy korrelyatsiyaga ega. Bu shuni anglatadiki, banklar hajmi, ININC, aktivlarni boshqarish va banklarning operatsion samaradorligi oshishi bilan ROA ko'rsatkichi ham oshadi. Bundan tashqari, ININC esa aktivlarni boshqarish va banklarning operatsion samaradorligi bilan salbiy munosabatga ega ekanligi aniqlandi.

<sup>1</sup> Muallif tomonidan STATA dasturi asosida hisoblab chiqildi.

<sup>2</sup> Muallif tomonidan STATA dasturi asosida hisoblab chiqildi.

Keyingi bosqich ekonometrik tahlil bo'yicha eng muhim qadamdir. Bu regression tahlildir. Bunda biz har bir bog'liq o'zgaruvchi uchun alohida regression tahlil olib boramiz.

3-jadval

<b>Regrestsion tahlil (ROA)<sup>3</sup></b>				
<b>Mustaqil o'zgaruvchilar</b>	<b>Bog'liq o'zgaruvchi: Aktivlar rentabelligi (ROA)</b>			
	<i>Coef.</i>	<i>Std. Err.</i>	<i>t</i>	<i>P - Value (P&gt; t )</i>
<i>LOG (BS)</i>	0.6549391	0.2742724	2.39	0.017
<i>AsM</i>	0.1106824	0.0397366	2.79	0.005
<i>OE</i>	0.0124649	0.0042127	2.96	0.003
<i>cons</i>	-8.294944	3.735365	-2.22	0.026
<i>Prob &gt; F</i>	0.0000			
<i>R-squared</i>	0.4798			
<i>Adj R-squared</i>	0.4591			

Yuqoridagi keltirilgan hisob-kitoblar bo'yicha quyidagi ko'p omilli regression model shakllandi.

$$ROA = -8.294944 + 0.6549391 * \ln(BS) + 0.1106824 * AsM + 0.0124649 * OE \quad (3)$$

Shakllangan modelda to'g'rilangan determinatsiya koeffitsienti shuni ko'rsatadiki, xususiy bank aktivlar rentabelligi (ROA)ga ta'sir qiluvchi omil hisoblangan bank aktivlari hajmi (*LOG (BS)*), aktivlarni boshqarish (*AsM*) va banklarning operatsion samaradorligi (*OE*)ga ta'siri darajasini koeffitsientni 5 foizlik muhimlik darajasida aniqlandi. Tuzilgan regression modelining Fisherning F-statistikasining P-qiymatining ehtimolligi 0,05 dan kichik bo'lib bank aktivlari hajmi (*LOG (BS)*), aktivlarni boshqarish (*AsM*) va banklarning operatsion samaradorligi (*OE*) mustaqil o'zgaruvchi omillarning bog'liq o'zgaruvchi hisoblangan aktivlar rentabelligi (ROA)ga ta'sir qilishini ko'rsatadi. Tuzilgan modelning prognoz qilishini aniqlash uchun diagnostika tahlili amalga oshirildi va o'zgaruvchilarda avtokorreliyatsiyasi va geteroskedastik muammolari mavjud emasligi aniqlandi.

Bundan tashqari, quyidagi jadvalda biz bog'liq o'zgaruvchi hisoblangan sof foiz daromadiga mustaqil o'zgaruvchilarning bog'liqligini regression tahlilini ko'rib chiqamiz.

4-jadval

<b>Regrestsion tahlil (INTINC)<sup>4</sup></b>				
<b>Mustaqil o'zgaruvchilar</b>	<b>Bog'liq o'zgaruvchi: Sof foizli daromad (logINTINC)</b>			
	<i>Coef.</i>	<i>Std. Err.</i>	<i>t</i>	<i>P - Value (P&gt; t )</i>
<i>LOG (BS)</i>	0.902673	0.1079769	8.36	0.000
<i>AsM</i>	0.0489261	0.0127911	3.83	0.001
<i>OE</i>	-0.0037196	0.0014622	-2.54	0.016
<i>cons</i>	-2.212484	1.450339	-1.53	0.137
<i>Prob &gt; F</i>	0.0000			
<i>R-squared</i>	0.8506			

<sup>3</sup> Muallif tomonidan STATA dasturi asosida hisoblab chiqildi.

<sup>4</sup> Muallif tomonidan STATA dasturi asosida hisoblab chiqildi.



Yuqoridagi keltirilgan hisob-kitoblar bo'yicha quyidagi ko'p omilli regression model shakllandi.

$$\ln(INTNC) = -2.212484 + 0.902673 * \ln(BS) + 0.0489261 * AsM - 0.0037196 * OE \quad (4)$$

Bu tenglikda keltirilgan modeldagi o'zgaruvchilar koeffitsientlarini tasodifiy va o'zgarimas ta'sirlar metodlaridan foydalangan holda ekonometrik baholanadi. 3.4-jadvalda bank aktivlari hajmi va aktivlarni boshqarish ko'rsatkichi xususiy banklarning sof foiz daromadiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, bank aktivlari hajmi xususiy banklarning sof foiz daromadini oshirishning eng sermahsul omili bo'lib, u 0,90 birlik ijobiy ko'rsatikichni ko'rsatmoqda. O'zgaruvchilarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ikkilamchi koeffitsientlar kam bo'lib, banklarning operatsion samaradorligi bankning sof foiz daromadini pasayishiga olib keladi.

### **Xulosa va takliflar**

Ekonometrik shakllantirilgan modellarimizdan xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, boshqa omillarni hisobga olmagan holda, bank aktivlari hajmini 1 mln. so'mga oshishi xususiy banklarning aktivlar rentabelligini 0,65 foizga, aktivlarni boshqarish ko'rsatkichi 1 foizga oshishi xususiy banklarning aktivlar rentabelligini 0,11 foizga shuningdek, banklarning operatsion samaradorligi 1 foizga oshishi esa, xususiy banklarning aktivlar rentabelligini 0,01 foizga o'sishiga olib keladi. Umuman olganda, boshqa omillarni inobatga olmagan holda bank aktivlari hajmi 1 mln. so'mga, aktivlarni boshqarish ko'rsatkichi va banklarning operatsion samaradorlik omillarini esa bir vaqtini o'zida 1 foizga o'sishi xususiy banklarning aktivlar rentabelligini 0,77 foizga oshishiga olib kelgan.

Bundan tashqari, 2-modelimiz bo'yicha esa, boshqa omillarni hisobga olmagan holda, bank aktivlari hajmini 1 mln. so'mga o'sishi xususiy banklarning sof foiz daromadini 902,7 ming. so'mga, aktivlarni boshqarish ko'rsatkichi 1 foizga oshishi xususiy banklarning sof foiz daromadini 48,9 ming. so'mga o'sishiga olib keladi. Biroq, banklarning operatsion samaradorligi 1 foizga oshishi esa, xususiy banklarning sof foiz daromadini 3,7 ming. so'mga kamayishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, o'z mablag'lari va majburiyatlarini boshqarishga kompleks yondashuv xususiy banklarning samaradorlik ko'rsatkichlarini yaxshilashga yordam beradi. Buning natijasida esa, xususiy banklar o'zlarining mustaqilligini ta'minlashga, ichki manbalar hisobidan kapitalni ko'paytirishga, asosan, foyda olishga alohida e'tibor berishlikka olib keladi. Yakunda ularning resurs bazasi oshishiga va mustahkamlashishigi erishish mumkin bo'ladi. Qaysi bankning resurs bazasi mustahkam bo'lsa, o'sha bankning kreditlash salohiyati kengayib boraveradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Tsyhanyuk, D. Effective ways to making strong resource base for Ukrainian banks in terms of unstable economy // *Středoevropský věstník pro vědu*

a v'yzkum. – 2014. – №7. - P. 94-106 <https://www.essuir.sumdu.edu.ua/bitstream-download/123456789/52435/7>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Toshkent, 2018 yil 28 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/2228>

3. Т.Ишметов «Государство не будет наращивать долю в банках», Газета.uz, Ташкент, 26.11.2018 <https://www.gazeta.uz/ru/2018/11/26/bank/>

4. Kurbanov R. The practice of strengthening of resource base in private banks. *International Journal of Economics, Commerce and Management*, 2020 8 (3), ISSN: 23485-0386. <http://ijecm.co.uk/wp-content/uploads/2020/03/8334.pdf>

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish stategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar stategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.

7. Prakash, P., Iqbal, Th., Habeeb, R., Rajesha, T. and Adel S. An Evaluation of Financial Performance of Commercial Banks. *International Journal of Applied Business and Economic Research*. Vol 15 2017 <https://www.researchgate.net/publication/324748373>

8. Dakito Alemu, Assessment of Banking Performance Using Capital Adequacy in Ethiopia, *Economics*. Vol. 4, No. 6, 2015, pp. 106-111. doi: 10.11648/j.eco.20150406.12

9. Umarov A. Z., Asrarova M.,B. Objectives of the provision of financial stability of commercial banks. *International Finance and Accounting* 2017, vol.3,

10. Zakhirov, M. M. Capital efficiency (return on equity) in banks and risks. *International Finance and Accounting* 2017, vol.3,

11. B. Capraru and I. Ihnatov Banks' Profitability in Selected Central and Eastern European Countries. *Procedia Economics and Finance, ELSIVIER*, 16 (2014), 587-591

12. Tandelilin, Eduardus. Portofolio dan Investasi: Teori dan Aplikasi. 1 st Edition. Yogyakarta: Kanisius, 2010.

13. Dendawijaya, L. Manajemen Perbankan. Bogor: Ghalia Indonesia, 2009.

14. Tesfatsion Sahlu Desta Financial performance of "the best African banks": a comparative analysis through camel rating. *Journal of Accounting and Management*, vol: 6; no: 1, 2016; p 1 – 20

15. Naeem, M, Baloch, QB & Khan, AW, 'Factors affecting banks' profitability in Pakistan', *International Journal of Business Studies Review*, 2017, vol.2, no.2, pp.33-49.

16. Xannaev Sh. Turli mulkchilik shaklidagi banklar faoliyati samaradorligi tahlili. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019 yil

17. Nasriddinov F., Maxmudova M. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholashning xalqaro standartlari. *“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali*. № 4, iyul-avgust, 2018 yil

18. Sattarov O.B. Bank tizimi barqarorligini ta'minlash: nazariy va amaliy jihatlar. *“Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali*. № 3, iyun, 2018 yil